



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

**TURKIYA TAJRIBASI ASOSIDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH  
YO‘NALISHLARI**

**НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА ОСНОВЕ  
ОПЫТА ТУРЦИИ**

**DIRECTIONS FOR DEVELOPING TOURISM INFRASTRUCTURE BASED ON  
TURKEY’S EXPERIENCE**

**Teshabayeva Odina Nasridinovna** dotsent, i.f.f.d., PhD  
iqtisodiyot fakulteti, FarDU

**Annotatsiya**

Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirishda Turkiya tajribasi tahlil qilinadi. Unda davlat-xususiy sheriklik (PPP), maxsus turizm zonalarini, transport infratuzilmasini va milliy brend siyosatining ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** turizm infratuzilmasini, turizm iqtisodiy zonalarini, transport-logistika, brend

В статье анализируется опыт Турции в развитии туристической инфраструктуры. Рассматривается значение механизмов государственно-частного партнёрства (ГЧП), специальных туристических экономических зон, транспортной инфраструктуры и национальной бренд-политики.

**Ключевые слова:** туристическая инфраструктура, туристические экономические зоны, транспортно-логистическая система, бренд

The article analyzes Turkey’s experience in developing tourism infrastructure. It examines the importance of public–private partnership (PPP) mechanisms, special tourism economic zones, transport infrastructure, and national branding policy.

**Keywords:** tourism infrastructure, tourism economic zones, transport and logistics system, brand.

Turizm sohasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, turizm ko‘plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning muhim qismini tashkil etib, millionlab ish o‘rinlarini yaratish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Global miqyosda transport infratuzilmasining rivojlanishi, xizmatlar sifati, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda turistik marketing strategiyalarining takomillashuvi turizm sohasining barqaror o‘shishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini samarali boshqarish, zamonaviy xizmat turlarini joriy etish va raqobatbardosh turistik mahsulotlarni shakllantirish davlat siyosati, investitsiya muhiti hamda xalqaro hamkorlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

So‘nggi yillarda ko‘plab mamlakatlar turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Ayniqsa, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, transport-logistika tizimini takomillashtirish, mehmonxona xo‘jaligini rivojlantirish hamda turistik xizmatlar marketingini kuchaytirish orqali xalqaro sayyohlar oqimini oshirishga erishilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Turkiya, Malayziya va Ispaniya kabi mamlakatlar turizmni iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveriga aylantirgan davlatlar sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu mamlakatlar turizmni rivojlantirishda infratuzilmani modernizatsiya qilish, turizm zonalarini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo‘llash hamda milliy turizm brendini shakllantirish orqali sezilarli natijalarga erishgan.

Xususan, Turkiya turizmni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan maxsus turizm hududlarini tashkil etish, investitsiyalarni jalb qilish va marketing strategiyalarini faol olib borish orqali jahon turizm bozorida mustahkam o‘rin egalladi. Malayziya esa ekologik turizm, madaniy turizm va sog‘lomlashtirish turizmni rivojlantirish orqali turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga erishdi. Ispaniya tajribasi esa yuqori darajada rivojlangan transport infratuzilmasi, mehmonxona xo‘jaligining rivojlanganligi hamda xizmatlar sifatining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Mazkur mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda xalqaro sayyohlar oqimini ko‘paytirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shu bois xorijiy tajribalarni tahlil qilish va ularning samarali jihatlarini milliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Turkiya tajribasini o‘rganishda qiyosiy tahlil, statistik ma‘lumotlarni dinamik tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, turizm infratuzilmasining rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida analitik baholash o‘tkazilib, O‘zbekiston sharoitiga mos amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Turizm infratuzilmasi tushunchasiga turli olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar berilgan. Masalan, Michael Porter infratuzilmani mamlakatning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida baholab, transport, kommunikatsiya va xizmatlar tizimining rivojlanganligi iqtisodiy ustunlikni ta‘minlashini ta‘kidlaydi [1]. Uning fikricha, infratuzilma qanchalik rivojlangan bo‘lsa, turizm sohasida investitsiya jalb qilish va turistik xizmatlar sifatini oshirish imkoniyatlari shunchalik kengayadi.

Shuningdek, Philip Kotler turizm infratuzilmasini turistik mahsulotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘rib, mehmonxona xo‘jaligi, transport, ovqatlanish va boshqa xizmat ko‘rsatish tizimlarining o‘zaro uyg‘unligi sayyohlar ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynashini qayd etadi [2]. U turizm marketingida infratuzilmaning rivojlanganligi turistlar oqimini jalb qilish va mamlakat turistik imijini shakllantirishda muhim omil ekanligini ta‘kidlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini qo‘llash hamda infratuzilmani modernizatsiya qilishning iqtisodiy o‘lishga ta‘siri keng yoritilgan. Xorijiy tajribalar, xususan Turkiya modeli, strategik rejalashtirish, investitsiya siyosati va marketing strategiyalarining turizm rivojida muhim rolini ko‘rsatadi. Mahalliy tadqiqotlarda esa turizm infratuzilmasini takomillashtirish, transport-logistika tizimini rivojlantirish hamda xizmatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali turizm salohiyatini oshirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Mazkur maqolada Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan asosiy yondashuvlar, siyosiy-iqtisodiy chora-tadbirlar hamda ularning iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi. Ushbu tajribani o‘rganish O‘zbekiston sharoitida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro turistik oqimni kengaytirishga qaratilgan samarali strategiyalarni shakllantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Turkiya turizmni milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri sifatida belgilab, 1980-yillardan boshlab uni davlat siyosati darajasida rivojlantirishga kirishdi. Ayniqsa, davlat va xususiy sektor hamkorligi asosida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlar amalga oshirildi. Bu jarayonda davlat-xususiy sheriklik (Public–Private Partnership – PPP) mexanizmlari muhim rol o‘ynab, investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratildi. Davlat tomonidan turizm obyektlari qurilishi uchun yer ajratilishi, soliq imtiyozlari berilishi, kredit va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralarning joriy etilishi xususiy sektor faolligini oshirdi. Natijada mehmonxonalar, kurort majmualari, dam olish maskanlari va ko‘ngilochar markazlar soni keskin ortdi.

Transport va logistika infratuzilmasining rivojlantirilishi ham Turkiya turizm siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Istanbul, Antalya va Bodrum kabi yirik turistik markazlarda xalqaro aeroportlar modernizatsiya qilinib, ularning xizmat ko‘rsatish quvvati sezilarli darajada oshirildi. Shuningdek, tezyurar temiryo‘l liniyalari, zamonaviy avtomobil yo‘llari va dengiz portlari

rivojlantirilib, mamlakat ichki hududlari o‘rtasidagi transport aloqalari mustahkamlandi. Bu esa sayyohlar uchun qulay harakatlanish sharoitlarini yaratib, turizm oqimining ko‘payishiga xizmat qildi.

Turkiya tajribasida yana bir muhim yo‘nalish — maxsus turizm iqtisodiy zonalarini tashkil etishdir. “Tourism Encouragement Zones” deb ataluvchi hududlarda investorlar uchun yer ajratish, infratuzilma bilan ta‘minlash hamda soliq va bojxona imtiyozlarini berish kabi rag‘batlantiruvchi mexanizmlar joriy etilgan. Bu esa mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qilib, turizm infratuzilmasining tez sur‘atlarda rivojlanishiga imkon yaratdi.

Bundan tashqari, Turkiya turizm marketingiga ham alohida e‘tibor qaratdi. “Go Turkiy” milliy brendi orqali mamlakat o‘zining tarixiy-madaniy merosi, dengiz kurortlari va gastronomik turizmini xalqaro miqyosda faol targ‘ib qildi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan onlayn viza tizimi, elektron bronlash platformalari va raqamli marketing vositalaridan foydalanish turizm xizmatlarining qulayligi va sifatini oshirdi. Natijada Turkiya qisqa vaqt ichida dunyoning eng ko‘p sayyoh qabul qiluvchi davlatlaridan biriga aylandi.

Umuman olganda, Turkiya tajribasi turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat siyosati, investitsiya muhitini yaxshilash, infratuzilma modernizatsiyasi hamda samarali marketing strategiyalarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham turizm sohasini rivojlantirishda muhim amaliy yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

**1-jadval**

**Turkiyada turizm infratuzilmasi va iqtisodiy o‘shishining 2014–2024-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari [5]**

<b>Yil</b>	<b>Turizmning YaIMga ulushi (%)</b>	<b>Izohlar</b>
2014	10,0 %	Barqaror o‘shish, kuchli davlat qo‘llab-quvvatlovi
2015	10,8 %	Yangi mehmonxonalar, logistikasi rivojlandi
2016	9,5 %	Geosiyosiy inqiroz, turizm pasaydi
2017	10,2 %	Tiklanish boshlandi, davlat investitsiyasi
2018	11,0 %	“Go Turkiy” brendi joriy qilindi
2019	11,0 %	Turizm yuksalishida barqaror yil
2020	5,1 %	COVID-19 pandemiyasi
2021	7,3 %	Transport infratuzilmasi tiklandi
2022	12,0 %	Tezkor investitsiyalar va xususiy sektor roli
2023	12,3 %	Turizm eksporti va raqamli xizmatlar o‘sdi
2024	13,1 %	Barqaror o‘shish, ekologik turizm kuchaymoqda

Ushbu jadvalda turizmning yalpi ichki mahsulotga (YaIM) qo‘shgan ulushi foizlarda ifodalangan. 2014–2024-yillar davomida Turkiyada turizm infratuzilmasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli hissa qo‘shdi. Jumladan, turizm sektoriga yo‘naltirilgan davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalar, transport-logistika infratuzilmasining kengaytirilishi va turistik hududlarga berilgan yengilliklar tufayli turizm sohasi strategik iqtisodiy drayverga aylandi.

2014-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida turizm sohasi yalpi ichki mahsulotdagi ulushi oshib, turistik oqimlar yil sayin o‘sib bordi. Ayniqsa, 2016–2017 yillar oralig‘ida bo‘lgan pasayishdan so‘ng, 2018-yildan boshlab barqaror tiklanish boshlangan bo‘lib, bu jarayon turistik hududlar (masalan, Antalya, Bodrum, Kapadokiya) infrastrukturasi zamonaviylashtirilishi bilan bog‘liq.

2020–2021-yillardagi global pandemiya davrida turizm sektori inqirozni boshdan kechirdi, ammo 2022-yildan boshlab Turkiya hukumati tomonidan taqdim etilgan soliq imtiyozlari, marketing

kampaniyalari va infratuzilma loyihalari yordamida tiklanish bosqichi boshlandi. Ayniqsa, "Go Turkiy" brendi ostida olib borilgan xalqaro PR va raqamli xizmatlar strategiyasi muvaffaqiyatli bo‘ldi.

2024-yilga kelib esa turizm sohasi nafaqat pandemiyadan oldingi darajaga yetdi, balki so‘nggi 10 yillikdagi eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishdi. Turistik xizmatlar eksporti va sayyohlar soni sezilarli oshib, iqtisodiyotga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi ham ko‘paydi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Turkiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizm infratuzilmasini samarali rivojlantirishda davlat tomonidan yaratilgan qulay iqtisodiy va institutsional sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlangan investitsiya muhiti, soliq imtiyozlari, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanishi hamda marketing strategiyalarining izchil amalga oshirilishi turizm sohasining jadal rivojlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, xususiy sektorning faol ishtiroki, yangi mehmonxona majmualari, dam olish maskanlari va ko‘ngilochar markazlarning barpo etilishi turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirib, sayyohlar oqimini sezilarli darajada oshirdi. Natijada turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim daromad manbalaridan biriga aylanib, bandlikni ta‘minlash, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Ushbu tajribalar O‘zbekiston uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar hamda tog‘ va ekologik turizm salohiyatiga ega hududlar atrofida zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish, transport-logistika tizimini takomillashtirish va xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish muhim hisoblanadi. Bunda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo‘llash, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, turizm zonalarini tashkil etish hamda mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish mumkin.

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish, turizm xizmatlarini onlayn platformalar orqali targ‘ib qilish, milliy turizm brendini shakllantirish hamda ekologik va madaniy barqarorlikni ta‘minlovchi strategiyalarni amalga oshirish O‘zbekiston turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Natijada mamlakat turizm sohasi xalqaro miqyosda raqobatbardosh tarmoqlardan biriga aylanib, iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish va aholi bandligini ta‘minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Porter, M. E. (1998). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. New York, NY: Free Press.
2. Kotler, P., Bowen, J. T., & Makens, J. C. (2016). *Marketing for hospitality and tourism* (6th ed.). Pearson Education Limited.
3. Nasridinovna, T. O. (2026). Development process of gastronomic tourism sector with digital technologies in Ferghana valley. *Shokh Articles Library*, 1(1).
4. Statistika qo‘mitasi. (2024, 15 yanvar). In January–December 2023, 6.6 million foreign citizens visited Uzbekistan.